

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTI”  
KAFEDRASI

*Qo‘lyozma huquqida*  
UDK:657.5:69

To‘lanova Gulnora Dastonovna

QURILISH TASHKILOTLARIDA MEHNATGA HAQ TO‘LASH  
BO‘YICHA HISOB-KITOBLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

70410101 - «Buxgalteriya hisobi» (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan



DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:  
PhD, dots. Kozimjonov A.

Toshkent – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “Buxgalteriya hisobi va hisoboti” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

5-sonli bayonnoma “16” 04 2024 y.

Kafedra mudiri: Abdusalomova N.B.


  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

imzo

sana

Ilmiy rahbar: Kozimjonov A.

  
\_\_\_\_\_

imzo

\_\_\_\_\_

imzo

sana

Magistr: To‘lanova G.D.

\_\_\_\_\_

imzo

\_\_\_\_\_

sana

Dissertatsiya “Moliya va buxgalteriya hisobi” fakulteti 2024 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_

№ \_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan.

#### ANNOTATSIYA

Dissertatsiya ishida raqamli iqtisodiyot sharoitida qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblarning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Mazkur sohada ishlab kelayotgan xodimlarning mehnatga haq to‘lash tartibini va moddiy rag‘batlantirish borasidagi hisob-kitoblar bo‘yicha hisobini tashkil qilishning tashkiliy-uslubiy jihatlari va moliyaviy hisobotning xalqaro strandarlari asosida mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblarni tadqiq qilingan hamda ularni hisobini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** qurilish tashkilotlari, shtat jadvali, mehnat haqi, mehnat haqi shakllari va haqi turlari, mehnatga haq to‘lash fondi, mukofot, asosiy va qo‘shimcha ish haqlari, tabel, ish haqini hisoblash qaydnomasi, 6710-schyoti, 6720-schyoti, daromad solig‘i, ta‘til haqini hisobga olish, kasalik varaqasiga haq to‘lash.

## MUNDARIJA

|  |           |
|--|-----------|
| <b>I BOB. KIRISH.....</b>  | <b>6</b>  |
| 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....   | 6         |
| 1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....   | 8         |
| 1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....  | 9         |
| 1.4. Tadqiqot ob’ekti va predmeti.....   | 11        |
| 1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....  | 11        |
| 1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....   | 11        |
| <b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>   | <b>13</b> |
| 2.1. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari.....   | 13        |
| 2.2. Tadqiqot gipotezasi.....  | 22        |
| <b>III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....</b>   | <b>23</b> |
| 3.1. Ma’lumotlar manbalari.....  | 23        |
| 3.2. Tadqiqot dizayni.....   | 23        |
| 3.3. Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublar.....   | 24        |
| 3.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....  | 24        |
| 3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning echimi...  | 25        |
| 3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....   | 25        |
| <b>IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR.....</b>  | <b>27</b> |
| 4.1. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy sohasida qurilish tashkilotlarining tutgan o‘rni va ahamiyati.....              | 27        |
| 4.2. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to‘lashning shakllari, tizimlari va ularning tarkiblarining mazmuni.....                  | 33        |
| 4.3. “LRB CONSTRUCTION” MCHJda mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar hisobining konseptual asoslari va amaliy holati .....    | 43        |
| 4.4. “LRB CONSTRUCTION” MCHJda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida mehnatga haq to‘lash hisobini takomillashtirish... | 65        |
| <b>V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>   | <b>69</b> |
| 5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari.....   | 70        |
| 5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....  | 72        |
| 5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar.....   | 73        |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>   | <b>74</b> |

## I BOB. KIRISH

### 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

O'zbekistonda qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan bo'lib, so'nggi yillarda amalga oshirilgan jadal islohotlar sababli yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi va unga muvofiq qabul qilingan Davlat dasturlarida mamlakat iqtisodiyotini yanada jadal rivojlantirishda iqtisodiyotning lokomotivi sifatida qurilish sohasiga, xususan yangi bino va inshootlar, yangi ishlab chiqarish obyektlari hamda xususiy tadbirkorlik, temir va avtomobil yo'llari, turar joy binolari qurilishiga alohida urg'u berilgan.

Xususan, mazkur bosh strategiya va unga muvofiq qabul qilingan dasturlar doirasida so'nggi 5 yil mobaynida qurilish tarmog'ini yanada takomillashtirish, qurilish organlari va muassasalarini izchil rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash va sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish industriyasining iqtisodiyot tarkibida tutgan o'rni va ahamiyati mamlakatning rivojlanish bosqichlariga qarab o'zgarib turadi. Bu tarmoqning ulushi rivojlanishning dastlabki bosqichlarida (rivojlanayotgan mamlakatlar) o'sib boradi, mamlakat o'rtacha daromadli mamlakatlar (yangi sanoatlashgan mamlakatlar) darajasiga yetganida barqarorlashadi va iqtisodiy yetuklik davrida (rivojlangan mamlakatlar) pasayadi.

O'zbekistonda bugungi kunda qurilish tarmog'ida olib borilayotgan ishlar, xizmatlar milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida nafaqat iqtisodiyotning asosiy fondlarini yaratuvchi qismi sifatida, balki mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar hamda turli ijtimoiy sohadagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishda o'zining muhim hissasini qo'shib kelmoqda.